

PEDAGOGIK ERUDITSIYA VA INTERDISIPLINAR YONDASHUV INTEGRATSIYASI

*ADPI pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Rustamova Ziyodaxon Nasoxiddin qizi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457104>

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik eruditsiyaning interdisiplinar yondashuv bilan bog‘liq ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot pedagogik eruditsiyaning o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi rolini, interdisiplinar yondashuv asosida o‘qitishning ta’lim jarayonidagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Pedagogik eruditsiya, interdisiplinar yondashuv, kasbiy kompetentlik, ta’lim samaradorligi, fanlararo integratsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется значение педагогической эрудиции в контексте междисциплинарного подхода. Исследование показывает роль педагогической эрудиции в формировании профессиональной компетентности учителя, эффективности обучения на основе междисциплинарного подхода в образовательном процессе.

Ключевые слова: Педагогическая эрудиция, междисциплинарный подход, профессиональная компетентность, эффективность обучения, междисциплинарная интеграция.

Abstract. This article analyzes the importance of pedagogical erudition in relation to the interdisciplinary approach. The study shows the role of pedagogical erudition in the formation of the teacher's professional competence, the effectiveness of teaching based on the interdisciplinary approach in the educational process.

Keywords. Pedagogical erudition, interdisciplinary approach, professional competence, educational effectiveness, interdisciplinary integration.

Pedagogik eruditsiya o‘qituvchining fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, ularni amaliyotda samarali qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Bu sifat pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. XX asr ikkinchi yarmida pedagogik eruditsiya tushunchasi fanda keng qo‘llanila boshladi va bugungi kunda u zamonaviy ta’lim jarayonida asosiy ilmiy kategoriya sifatida qaraladi [1.23].

Pedagogik eruditsiya tushunchasi ilk bor XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘qituvchining shaxsiy bilim salohiyatini baholash kontekstida paydo bo‘lgan. Shu davrdan boshlab, eruditsiya nafaqat fan bilimlari, balki pedagogika, psixologiya va metodika sohalarini o‘z ichiga olgan kompleks sifat sifatida rivojlandi. “Eruditsiya” tushunchasi lotincha eruditus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bilimli”, “ma’rifatli”, “keng bilimga ega shaxs” degan ma’nomlarni anglatadi [2.35-38]. Pedagogik nuqtai nazardan ushbu tushuncha o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimlari bilan bir qatorda boshqa fanlar, madaniyat, jamiyat va inson rivoji bilan bog‘liq bilimlarni ham o‘zlashtirganligini anglatadi [3.134]. Shunday ekan, pedagogik eruditsiya o‘qituvchining bilim doirasi kengligi va ilmiy tafakkur darajasini namoyon etuvchi kompleks sifat hisoblanadi.

Pedagogik eruditsiyaning yana bir muhim jihati — o‘qituvchining ijodiy faoliyati va ilmiy izlanishga bo‘lgan intilishidir. Sh.A. Amonashvilining fikricha, pedagog shaxsining rivoji doimiy izlanish va o‘z ustida ishlash jarayonini ko‘zda tutadi [4.75]. Mazkur fikr pedagogik eruditsiya o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, pedagogik eruditsiya o’qituvchining kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi bo’lib, u pedagogning bilimlarni tizimli ravishda qo’llash qobiliyatini namoyon etadi. Jumladan, V.A. Slastenin o’qituvchining professional tayyorgarligini tahlil qilar ekan, pedagogning bilim doirasi kengligi hamda ilmiy fikrlash qobiliyati uning pedagogik mahoratini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini qayd etadi [5.86-88]. Bunday yondashuv o’qituvchidan nafaqat bilim egasi bo’lishni, balki bilimlarni o’quv jarayoniga moslashtirib, samarali ta’lim texnologiyalarini qo’llay olishni ham talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik eruditsiyaning ahamiyati ayniqsa interdisiplinar yondashuv bilan bog’liq holda yanada ortib bormoqda. Interdisiplinar yondashuv turli fanlar o’rtasidagi o’zaro aloqadorlikni ochib berish orqali bilimlarning yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o’quvchilarning tafakkurini kengaytirib, ularni muammolarni turli nuqtai nazardan ijodiy, tanqidiy tahlil qilishga o’rgatadi. Shu sababli pedagogik eruditsiyaga ega bo’lgan o’qituvchi ta’lim jarayonida turli fanlar o’rtasidagi integratsiyani ko’ra olishligi va uni amaliyotda samarali qo’llay olishligi zaruriy talablardandir.

Birgina fan doirasida o’qitilishi rejalashtirilgan mavzuni fanlararo integratsiya asosida yani tarix, madaniyat, san’at yoki axborot texnologiyalari elementlarini qo’llash orqali maqsadli boyitish o’qituvchining pedagogik eruditsiyasi mezonlarini qay darajada egallay olganinini belgilaydi, jarayonda o’quvchilarning fanni o’rganishga bo’lgan qiziqishini oshiradi, talim sifati samaradorligini yuqori bo’lishligini taminlaydi. Pedagogik jarayon o’quv materialini yanada mazmunli va tushunarli qilish bilan birga, o’quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantiradi. Shu jihatdan interdisiplinar yondashuv pedagogik eruditsiyaning amaliy namoyon bo’lish shakllaridan biri sifatida namoyon bo’ladi. Interdisiplinar yondashuvning pedagogik eruditsiyaga ta’siri esa XX asrning oxirida ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilina boshladi. Masalan, Dewey pedagogik yondashuvni fanlararo integratsiya bilan bog’lab, o’quvchilarda bilimlarning yaxlit tizimini shakllantirishga urg’u bergan [6.24-27]. Shu bilan birga, Slastenin o’qituvchining professional tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarga, balki ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatiga bog’liqligini ta’kidlaydi. Quyida interdisiplinar yondashuvdan foydalanib pedagogik eruditsiya qirralarini amaliy namoyon bo’lishligini ko’rib chiqamiz.

Ingliz tili va san’at integratsiyasi Pedagog san’at mavzusini mashhur rassomlarning asarlarini namoyish qilish, izohlash, o’z fikrini bildirish, tushuntirish metodlari orqali avvalo pedagogning o’zida san’atni sevish, uni idrok qila olish, estetik ongning yuqoriligini ko’rsatish barobarida ingliz tilida o’quvchilarning tasviriy nutqini rivojlantiradi, ijodiy, tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga undaydi. O’quvchilar rasmni ingliz tilida tahlil qiladilar yoki qisqa hikoya yaratadilar. Bunda san’at va til integratsiyasi amalga oshadi. Shu tariqa, pedagogik eruditsiya amaliy jihatdan namoyon bo’ladi [7.15].

Ingliz tili va axborot texnologiyalari, STEAM yondashuvi O’quvchilar ingliz tilida prezentatsiya, loyiha yoki qisqa video yaratish orqali raqamli savodxonlik va til ko’nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradilar. Bu jarayonda pedagogning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay olish ko’nikmasi yuqori darajada bo’lishligi, turli fanlarni integratsiya qilish orqali interdisiplinar yondashuvdan samarali foydalanib ta’lim oluvchilarni mavzuga, fanga to’g’ri yo’naltira olishligi ko’zda tutilmoqda.

Tahlil shuni ko’rsatadiki, interdisiplinar yondashuv pedagogik Eruditsiyani rivojlantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. U o’qituvchidan keng bilim doirasiga ega bo’lishni va kasbiy kompetentligini boyitishni talab qiladi. Shunday qilib, zamonaviy pedagog o’z kasbiy faoliyatida pedagogik eruditsiya va interdisiplinar yondashuvni uyg’unlashtira olganida ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga, o’quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, bilimlarni tizimli

o‘zlashtirishni rivojlantirishga xizmat qila oladigan yuksak pedagogik mahoratga ega o‘qituvchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya Psixologiya. – Moskva: Logos, 2004
3. Slavenin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2004.
4. Amonashvili Sh.A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari. – Moskva, 1996.
5. Dewey J. Experience and education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Gardner H. Multiple intelligences. –New York: Basic books, 1983.
7. Qurbonova, F. (2022). XALQ OG‘ZAKI IJODIYOTI KELAJAK AVLOD TAFAKKURI SHAKLLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(9), 34-38.
8. Qurbonova, F., & Oribjonova, M. (2024). INKLYUZIV TALIM SHAROITIDA FANLARNI O‘QITISH JARAYONIGA TADBIQ ETILGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 236-237.
9. Qurbonova, F. (2022). XALQ OG‘ZAKI IJODIYOTI KELAJAK AVLOD TAFAKKURI SHAKLLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(9), 34-38.